

"QUTADG'U BILIK"DA IRSOLI MASAL

Sharipova Sunbula Ahad qizi,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti assistenti
sharipovasunbula730@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada turkiy didaktik adabiyotning islomiy manbalardan tashqari yana turkiy dunyoqarashni ifodalovchi qadim umumturkiy ildizlarga ham ega ekanligi "Qutadg'u bilik" asarida qo'llanilgan ayrim eski turkiy maqollarni tahlilga tortish orqali izohlangan. Shuningdek, poetik maqsadni amalga oshirishda qo'llanilgan maqol va masallarning matnga singdirish usullari, irsoli masal she'riy san'atining ifoda usullari haqida mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. "Qutadg'u bilik", Yusuf Xos Hojib, irsoli masal, bilim, didaktika, masal, maqol, pandnoma.

"KUTADGU BİLİK"DE IRSOLI MASAL

Sharipova Sunbula Ahad kızı,
Özbek-Finlandiya pedagoji enstitüsü asistanı

Özet. Makalede, "Kutadgu bilik" adlı eserde kullanılan bazı eski Türk atasözleri incelenerek, Türk didaktik edebiyatının, İslami kaynakların yanı sıra, Türk dünya görüşünü ifade eden eski Türk kökenlerine de sahip olduğu analiz edilmektedir. Ayrıca atasözleri ve benzetmelerin metne dahil edilme yöntemleri, atasözünün şiir sanatının ifade biçimleri üzerinde durulmaktadır.

Anahtar kelimeler. "Kutadgu bilik", Yusuf Khos Hajib, atasözü, bilgi, didaktik.

PROVERBS IN "KUTADGU BILIK"

Sharipova Sunbula Ahad qizi,
assistant of the Uzbek-Finnish pedagogical institute

Annotation. The article analyzes the fact that Turkish didactic literature, in addition to Islamic sources, also has ancient Turkic roots expressing the Turkic worldview by analyzing some old Turkic proverbs used in the work "Kutadgu Bilik". Also, the methods of incorporating proverbs and sayings used to achieve the poetic goal into the text, and the methods of expression of the poetic art of the irsoli masal are presented.

Keywords. "Kutadgu Bili", Yusuf Khos Hajib, irsoli masal, knowledge, didactics, proverb, pandnama.

ИРСОЛИ МАСАЛЬ В «КУТАДГУ БИЛИК»

Шарипова Сунбула Ахад кизи,
ассистент Узбекско-Финского педагогического института

Аннотация. В статье анализируется тот факт, что турецкая дидактическая литература, помимо исламских источников, имеет также древнетюркские корни, выражающие тюркское мировоззрение, путем анализа некоторых древнетюркских пословиц, использованных в произведении «Кутадгу билик». Также рассматриваются способы включения пословиц и пословицы в текст, а также способы выражения поэтического искусства пословицы.

Ключевые слова. «Кутадгу билик», Юсуф Хос Хаджиб, пословица, знание, дидактика, пословица, поговорка.

O'zbek mumtoz adabiyotining islomiy asoslarga tayanishi uning milliyligini inkor etmaydi. Ulug' shoir-u adiblarimiz asarlarini milliy tilda yozgani, ularda turkiy millatga xos e'tiqod, ruhiyat, dunyoqarash aks etgani buning isbotidir. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik" masnaviysi, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ati-t-turk" asari turkiy-islom davri adabiyotining ilk buyuk asarlaridir. Xoja Ahmad Yassaviy ham qoraxoniylar davrida yashab ijod etdi. U o'zining "Devoni hikmat" va boshqa pand-u nasihatlar bilan dovrug' qozondi.

Keyinchalik turkiy adabiyotda "Hibat-ul-haqoyiq", "Turkiy Tafsir" singari asarlar yaratildi. Qur'oni karimning turkiy o'girmalari ham ilk bor qoraxoniylar davrida yuzaga keldi [2:4].

Didaktik adabiyotimizning dastlabki nodir namunalaridan hisoblangan "Qutadg'u bilik" ham islomiy falsafa bilan bir qatorda qadim umumturkiy ruhiyatni, dunyoqarashni o'zida ifoda etadi. Yusuf Xos Hojib asarning ba'zi o'rinlarida o'z fikrlarini dalillash maqsadida turkiy maqollar, masallarga murojaat etganligi fikrimizni asoslaydi.

Mashhur sharqshunos Shibliy Nu'moniy "She'r ul-Ajam" kitobida shunday yozadi: "G'arb ham o'z adabiyoti latofati bilan faxrlanadi, ammo bu adabiyot namoyandalari o'z fikrlarini to'liq bayon etish uchun eng kamida uch-to'rt misra yaratishga majburdirlar, holbuki Ajam she'riyati tarixida bir misra yoki baytga ikki-uch va hatto undanda ko'proq ma'nolarni singdirish odatiy holga aylangandir". Sharq shoirlarining so'z san'atida bunday ulkan muvaffaqiyatga erishganliklariga, bir tomondan, tilning ichki imkoniyatlari va so'zlarning ko'pma'noligi, ikkinchi tomondan, tasvir vositalari, adabiy usul va she'riy san'atlardan mahorat bilan foydalana olganliklari sabab bo'lgan [4:100]. Ma'lumki, mumtoz adabiyotimizda baytda maqol yoki hikmatli so'z keltirish "irsoli masal", "aqd" kabi she'riy san'atlarni yuzaga keltiradi. Har ikki she'riy san'at turida ham poetik maqsadni ro'yobga chiqarish uchun (fikrlarni dalillash, o'xshatish va h.k.) maqol va matallar keltiriladi. Adabiyotshunos Y.Is'hoqov she'riyatimiz tarixida maqol, matal va hikmatli iboralarining poetik maqsad uchun ishlatilishi ya'ni irsoli masal, asosan, uch usulda o'ziga xos tarzda ro'yobga chiqishini aytib o'tgan. Bular:

1. Keltirilayotgan maqol yoki matalga "*masaldur*", "*aytilur*" yoki "*masaldurkim*" so'zi yordami bilananiq ishora qilinadi yohud keltirilayotgan gap yoki iboraning manbaiga "*derlar*", "*ayturlar*" kabi vositalar bilan ishora qilinadi, uning xalq orasida ma'lum va mashxur ekanligi ta'kidlanadi.

2. Maqol yoki matal aynan keltiriladi.

3. Maqol yoki matalning mazmuni saqlangan holda, uning shakli bir oz o'zgartiriladi yohud she'riy vazn talabi bilan yangicha shaklda ifodalanadi [5:20].

"Qutadg'u bilik"da keltirilgan maqol va masallarni tadqiq etish mobaynida yuqorida ko'rsatilgan har uch xususiyatni uchratishimiz mumkin. Jumladan, adib bilim va uning foydasi haqida mulohaza yuritarkan, bilimli va bilimsiz kishilarni taqqoslaydi:

Uqush ul sengar edgu andlig' adash,

Bilig ul sanga bag'irsaq kadash.

Biliksizka bilgi qilichni yag'i,

Adin bo'lmasa tab bu ikki chog'i. [7:311]

Baytlar mazmuni quyidagicha: Zakovat sen uchun ezgu ontli do'stdir, bilim esa mehribon qarindosh. Bilimsiz kishiga bilganlari va qilmishlari yovdir, shu ikki yovning o'zi unga kifoyadir. Keltirilgan qiyosga asos ularoq quyidagicha "*turkiycha masal*"ni keltiradi:

Munar mengzatu keldi turkcha masal,

O'qig'il muni sen kangul ogka al.

Uqushlug' kishika eshi tab uqush,

Biligsiz kishika ati tab sukush. [7:311]

Ya'ni: turkchada bunga o'xshash bir masal bor, sen uni qalbingga joylagin: Zakovatli kishi uchun zakovati yetarli, bilimsiz kishining oti faqat tahqirga loyiqdir.

Asarning Tabg'ach Bug'ro Qoraxonga bag'ishlangan bobida ham eski turkiy maqollardan biri keltirilgan:

*Edi kechki so'z ul masalda kelir,
Ata o'rni, ati o'g'ulqa qolur.* [7:298]

Ya'ni: Masalda keladigan juda eski ta'bir bor, Otaning o'rni va oti o'g'ilga qoladi. Ushbu maqolning hozirgi kunda "*Ot o'rnini toy bosar, Ota o'rnini - o'g'il*" shaklidagi ko'rinishi mavjud. Mahmud Koshg'ariy o'zining "*Devonu lug'otit turk*" asarida mazkur maqolning o'ziga xos ko'rinishlarini keltirgan. Jumladan, u yerda "*Uluq yag'iri o'g'ulqa qalir*" ya'ni "*ot kuragidagi yag'ir bolalariga meros bo'lib qoladi*" degan maqol mavjud.

Masal keldi turkcha mungar mengzatur,
Ani so'zladim men muniu yangzatur,
Ukush ko'rki so'z ul bu so'z o'k telim,
Kishi ko'rki yuz ul, bu yuz ko'rki ko'z. [7:107]

Ya'ni: bunga o'xshatadigan turkchada bir masal bor, bunga shu masalni moslab so'zladim. Zakovat ko'rki so'zdir, bu tilning ko'rki so'zdir. Kishining ko'rki yuzdir, yuzning ko'rki ko'zdir. Bilig qadrini ham biligligi bilar,

Guhar qadrini ham guhar-o'q bilar. [7:29]

Mazmuni: bilim qadrini bilimli biladi, gavhar qadrini gavhartarosh biladi. Bu bugungi "*Zar qadrini zargar biladi*" maqolining qadimiy variantidir.

Asarda ba'zan maqollar mazmuni butun bayt yoki baytlarga singdirib yuborilganligining guvohi bo'lamiz. She'riyatda maqol har doim ham o'zgarishsiz qo'llanavermaydi. Yuqorida ta'kidlaganimizdik, maqol yoki matalning mazmuni saqlangan holda, uning shakli bir oz o'zgartiriladi yohud she'riy vazn yoki qofiya talabi bilan yangicha shaklda ifodalanadi:

*O'gush so'zlama so'z birar so'zla az,
O'gush so'z tugunin bu bir so'zda yaz.* [7:169]

Ya'ni: Talay so'z so'zlama, biroz oz so'zla, talay so'zning chigalini shu oz so'zda yoz. Bu bugungi o'zbek tilida keng iste'molda bo'lgan "*Oz so'zla, soz so'zla*" maqoliga mos keladi.

G'arb va Sharq xalqlari, jumladan, turkiy xalqlar adabiyotida didaktika uzoq tarixga ega. O'zbek mumtoz adabiyotidagi didaktikaning dastlabki yirik namunalari Yusuf Xos Hojibning "*Qutadg'u bilig*", Ahmad Yugnakiyning "*Hibat ul-haqoyiq*" dostonlari matni bilan tanishar ekanmiz turkiy didaktik adabiyotning ikki muhim manba - turkiy dunyoqarashni ifodalovchi unsurlar va islomiy g'oyalalar asosida shakllanganligiga guvoh bo'lamiz. Shu ikki asosiy g'oyalalar uyg'unlashtirilgan holda didaktik matn mazmuniga yuqori mahorat bilan singdirilib yuborilgan. Bu esa qator timsollar va badiiy san'ay xillarining yuzaga kelishiga yoki mavjudlarining mazmunan boyishiga olib kelgan. Aqd, ishora, iqtibos, talmeh kabi she'riy san'atlar fikrimizni dalillaydi. Didaktikaga xos bo'lgan xususiyatlardan Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oni, So'fi Olloyor, Huvaydo, Haziniy kabi tasavvuf namoyandalari ham samarali foydalananganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahmonov N. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). O'quv qo'llanma. Toshkent – 2014. B. 222
2. Sodiqov Q. Qoraxoniylar davri turkiy yozma yodgorliklari tili. – T.: "Akademnashr". 2025. B. 360
3. Vohidov R.J., Eshonqulov N.R. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. 1-qism. -T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, 2006. B. 196
4. Давлатов О. Алишер Навоий шеърлярида Куръон оятлари ва хадисларнинг бадий талқини. Филология фанлари бўйича PhD диссертацияси. – Самарқанд. 2017, B. 160
5. Исҳоқов Й. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: "Зарқалам". 2006. B. 128
6. Хожиахмедов А. Шеърлий санъатлар ва мумтоз қофия. -Т.: "Шарк". 1998, B. 160
7. Юсуф Хос Хожиб. Кутадғу билиг. – Т.: "Фан". 1972. B. 965
8. Buriyeva, F. (2024). Zamonaviy she'riyatda diniy-tasavvufiy mavzu va timsollar an'anaviyligi. Miasto Przyszłości, 53, 1347-1350.

9. Sharipova, S. (2025). Hikmatlarda iqtibos she'riy san'atining qo'llanilishi. Jahon ilmiy qarashlarini tahlil qilish Xalqaro ilmiy jurnal , 3 (1), 168-171.
10. Azizovna Y.S. [Study of folktale in literature and its relation to the epic genre](https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/7250/19705/65b7e8e0c2065_Yuldosheva%20S.Central%20European%20Management%20Journal.pdf). Central European Management Journal 31 (No. 03 (2023)), 476-482
https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/7250/19705/65b7e8e0c2065_Yuldosheva%20S.Central%20European%20Management%20Journal.pdf
11. Nazarova, X. G. (2024). Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonidagi hikoyatlarda tasavvuf talqining yorqinligi. *Research Focus*, 3(11), 46-50.
12. Nazarova, X. G. (2024). Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonidagi hikoyatlarda orifona rux ifodasi. *Prospects and main trends in modern science*, 2(16), 36-39.
13. Nazarova, H. (2021). Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonidagi hikoyatlarda oriflar timsoli. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 696-701.